

XIToyNING “GLOBAL BOSHQARUV TASHABBUSI” BMTNING XALQARO MAYDONDAGI ROLINI OSHIRISH YUZASIDAN MUHIM DASTUR



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-26-598-602>

Abdazimov Javlon

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

abdazimovjavlon@gmail.com

Annotatsiya. *Xitoyning “Global boshqaruv tashabbusi” (全球治理倡议) tashabbusi 2025-yilda e’lon qilingan bo’lib, u xalqaro hamkorlik va global boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan tashabbus sifatida ko’riladi. Tashabbus BMTning asosiy prinsiplari — suverenitetlarni hurmat qilish, xalqaro huquq, ko’p tomonlama hamkorlik va inson farovonligini ta’minlashga monandir. Shu bilan birga, tashabbus BMT tizimidagi ayrim masalalar vakillik yetishmasligi, samaradorlik pasayishi va yangi global chaqiriqlarga javob berishda bo’shliqlar mavjudligini haqida ishora beradi. Tashabbus BMT vazifalari bilan ko’p jihatdan uyg’un bo’lsada, uning amalga oshirilishi, moliyaviy va siyosiy mexanizmlari hamda BMT bilan o’zaro ta’siri masalalarida muammolar yuzaga kelishi mumkin. Xitoy tashabbusi BMTning markaziy rolini qo’llab-quvvatlashni maqsad qilgan bo’lsada, global boshqaruvda yangi institutlar paydo bo’lishi va manfaatlar to’qnashuvi xavfi mavjud. Umuman olganda, Xitoy tashabbusi global boshqaruv tizimini yangilash va dunyo davlatlari o’rtasida adolatli va samarali hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan strategik tashabbus sifatida baholanadi.*

Kalit so’zlar: *Global boshqaruv, Xitoy, BMT, xalqaro huquq, suverenitet, ko’p tomonlama hamkorlik, xalqaro hamkorlik, global chaqiriqlar, samarali boshqaruv, global rivojlanish, xalqaro xavfsizlik, Xitoy tashabbuslari*

Xitoy Xalq Respublikasining “Global boshqaruv tashabbusi” tashabbus muhim tashqi siyosat konsepsiyasi bo’lib, xalqaro hamkorlik masalalariga oid asosiy yondashuvlarni o’z ichiga oladi va dunyo davlatlari o’rtasida sheriklik munosabatlarini rivojlantirish va o’zaro hamkorlik uchun asoslarni taklif qiladi. Ushbu tashabbus global boshqaruv tamoyillarini takomillashtirishga va aloqalarni yangi davrga moslangan siyosat olib borishga yo’naltirilgan.

Umuman “Global boshqaruv tashabbusi” XXR raisi Si Szinpin tomonidan 2025-yil 1-sentyabr kuni “SHHT +” formatining kengaytirilgan sammit yig’ilishida

ilgari surilgani bilan ham diqqatga sazovardir. Uning qamrovini hozirgi SHHT makonidagi davlatlarning o‘zaro aloqalarini yangi sifat bosqichidan o‘lishi bilan hamohangligidadir. Si Szinpinning dastlabki rahbarlikka erishgan 2012-yildan buyon XXR Kommunistik partiyasida ham katta siyosiy jarayonlar va mamlakatda esa chuqur modernizatsiya ishlari olib borilib, hozirga qadar jadallik bilan davom etmoqda. Shu ma’noda ushbu tashabbus Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tashkil etilganining 80 yilligiga bag‘ishlangan yutuq hamda kamchiliklarini chuqur tahlil qilib ishlab chiqilgan. Unda pandemiya davrida va undan so‘ng, umuman oxirgi besh yilda global boshqaruvning yetishmovchiligi mavjudligi tilga olinadi.

Bugungi kunga kelib esa BMT oldida jiddiy sinovlar yuzaga kelmoqda: Misol sifatida bugungi global Janub mamlakatlarining BMT siyosiy jarayonlarida yetarli darajada ishtirok etmasligi, yoxud BMT obro‘sining keskin tushib ketgani, BMTning zamonaviy xalqaro muammolar oldida yetarli darajada samarali harakat qila olmayotganligini barcha ishtirokchi davlat his etayotganligi ma’lum [4].

Xitoy Tashabbusi dunyo mamlakatlariga qanday sharoitlarda global boshqaruvni takomillashtirish kerakligi haqida umumiy tushuncha shakllantirish imkonini berishga qaratilganligi bilan xarakterli. Sababi XXR bu tashabbus BMT Ustaviga muvofiq, aksariyat mamlakatlar kutayotgan yondashuvlarga javob berishga qaratilib, “adolatlilik va oqilona boshqaruv tizimi”ni shakllantirishni o‘z oldiga asosiy maqsad sifatida belgilaydi[4].

Xitoy BMTning xalqaro masalalardagi markaziy rolini aynan ushbu Tashabbusning qo‘llab-quvvatlashga qaratilganini alohida ta’kidlaydi [3].

Tashabbus beshta asosiy tamoyildan iborat [4]:

1. Davlatlar suverenitetini hurmat qilish – bu davlatlarning tengligi, har bir davlatning o‘z taraqqiyot yo‘lini tanlash huquqi, xalqaro munosabatlarni demokratlashtirish orqali dunyo mamlakatlari manfaatlari va ehtiyojlarini aks ettirishga hamda ularning xalqaro ishlar yuzasidan ishtirokini ta’minlashga qaratilgan.

2. Xalqaro huquqqa sodiqlik – BMT Ustavi maqsad va tamoyillariga, umumiy tan olingan xalqaro huquq normalariga amal qilishni ta’minlash.

3. Ko‘p tomonlama yondashuv – barcha mamlakatlar va xalqlarni muhim xalqaro muammolarni muhokama qilishga va hal etishga jalb qilish.

4. Inson manfaatlariga asoslangan yondashuv – global boshqaruvni isloh qilish har qanday holatda ham xalq farovonligini ta’minlashga xizmat qilishi kerak.

5. Samaradorlikni oshirish – yangi, isloh qilingan global boshqaruv tizimi dolzarb xalqaro muammolarni hal eta olish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

Bugun xalqaro munosabatlarda chuqur o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, bu esa mintaqaviy beqarorliklarga olib kelmoqda, turli iqtisodiy rivojlanishga to‘siqlarni

yaratmoqda, globalizatsiyaning aksi kuchaymoqda, xalqaro huquqning qadri anchayin qimmatini yoqotmoqda. Shuning uchun ham global boshqaruv qanday bo'lishi va uni qanday takomillashtirish kerakligi haqidagi mulohazalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [3].

Global boshqaruv tashabbusi Xitoyning boshqa global tashabbuslari bilan uzviy bog'liq xususan, "Global rivojlanish tashabbusi", "Global xavfsizlik tashabbusi", "Global sivilizatsiya tashabbusi [4, 5].

Si Szinpin tomonidan ilgari surilgan "Global boshqaruv tashabbusi"ni jahon hamjamiyati yuqori baholab, bu takliflarni muhokama qilishga bir qator davlatlar qiziqishini bildirgan. U tashabbusni o'z vaqtida ilgari surilgan, dunyo mamlakatlari o'rtasida ijobiy kun tartibini shakllantirishga xizmat qiluvchi tashabbus sifatida ilgari surish kerakligi ta'kidlanmoqda[1, 2].

"Global boshqaruv tashabbusi BMT xalqaro maydondagi obro'si pasayishining yana bir ko'rinshi samaradorlik kamligida yaqqon ifodasidir, misol uchun, BMTning 2030-yil barqaror rivojlanish maqsadlarining amalga oshishi juda sust kechmoqda, iqlim o'zgarishi, raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt, kiber makon, kosmos kabi yangi sohalarida global boshqaruv yetishmasligi jiddiy sezilmoqda. [8]

BMT asosiy global muvozanatni ta'minlashdagi funksiyalari haqida qisqacha nazar tashlasak uning Ustavi va amaldagi qarorlar asosida belgilangandek: dunyoda Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlashva nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish, harbiy kurashlardan saqlanish, tinchlik misiyalarini amalga oshirish. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, sog'liq, inson huquqlari sohalarida hamkorlikni qo'llab-quvvatlashni, huquqiy qoidalar va xalqaro huquqni rivojlantirish bilan xalqaro huquq normalarini yaratish yuzasidan BMT hujjatlari bilan kelishuvlarga erishish. Ajratilgan yordam va resurslar ta'minoti gumanitar missiyalarni vazifalarini BMT organlari tomonidan moliyalashtirilishi, dasturlar, fondlar va rivojlanish agentliklari faoliyatini muvofiqlashtirish. Global masalalarni hal qilishni muvofiqlashtirish orqali iqlim o'zgarishi, atrof-muhit, migratsiya, pandemiyalar, inson huquqlari, barqaror rivojlanish kabi global muvozanatni ta'minlashi belgilangan va albatta ularni amalga oshirishda BMT Bosh Assambleyasi, Xavfsizlik Kengashi, Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash, Xalqaro sud, BMT vakolatli agentliklari va boshqa organlar orqali amalga oshirilishi aniq belgilanadi.

Taqqoslash uchun Xitoyning Tashabbusi va BMT vazifalari o'rtasidagi ustuvor hamohangliklar va qarama-qarshiliklar hamohangligini tahlil qilinsa

funksiyalari o'rtasidagi uyg'unliklar, potensial muammolar va qarama-qarshiliklarni ko'rish mumkin.

Misol uchun “Xalqaro tinchlik va xavfsizlik sohasida Xitoy Tashabbusi ko‘p tomonlama yondashuvni va suverenitetlarni hurmatini talab qiladi, bu BMT Xavfsizlik Kengashi va tinchlik saqlash faoliyatlari bilan mos kelishi mumkin biroq, agar, BMT xavfsizlik mexanizmlarida xalqaro huquqqa zid bosimlar ishlatilsa, yoki muayyan guruhlar suverenitet masalasida tan olinmasa, Xitoydagi ichki betaraflik muvozanati bilan farq bo‘lishi mumkin

Hamkorlik va rivojlanish masalalarida Tashabbusning markazida inson turish va samaradorlik tamoyillari orqali BMTning 2030-yil barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg‘un bo‘lishi mumkin. Ammo amalda BMT rivojlanish dasturlari katta moliyaviy resurs talab qiladi va Xitoy tashabbusi esa resurslar bilan ta‘minlamasa yoki boshqalarga bosim qilsa, murosasiz talablarga olib borishi mumkin.

Xalqaro huquqiy tizimlarga Tashabbus xalqaro huquqqa sodiqlikni targ‘ib qiladi, yangi sohalarda ham qo‘shma normativ hujjatlar ishlab chiqishni taklif qiladi, bu BMT huquqiy me‘yorlar yaratish funksiyasi bilan uyg‘unlikni ta‘minlaydi, biroq tamoyillarda ba‘zan kuchli davlatlarning manfaatlariga zid kelishi mumkin. Qaysi davlatlar “qoidalarni belgilash” jarayonida boshqaruv qilishi, shaffoflik qanchalik bo‘lishi bu masalalar ziddiyatli bo‘lishi mumkin.

Global muammolarni hal qilish fonida Tashabbus qutubiy muammolarni iqlim, sun‘iy intellekt, kiber makon, kosmik tadqiqotlar va shu kabilarni, BMT bilan hamkorlik doirasida hal qilishga undaydi, ya‘ni BMT funksiyalari bilan aloqadorlik hosil qiladi. Lekin real hayotda davlatlar manfaatlari, siyosiy kuchlar, resurslar tafovutlari, xalqaro huquqiy ta‘sirlar masalan, sanksiyalar, ta‘qiqlar bu sohalarda hamkorlikni cheklaydi. Tashabbusning formulasi o‘zgarishlar uchun juda umumiydir va konkret mexanizmlar, ro‘yxatlar bo‘lmasa, amalga oshmaslik ehtimoli juda katta.

BMTning rolini mustahkamlash bo‘yicha Xitoy rasmiy bayonotlarda Tashabbus BMTning markaziy rolini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilganligini haqida ta‘kidlaydi.[6] Biroq amalda, agar Xitoy va boshqa davlatlar Tashabbus orqali global qo‘shimcha tashabbuslar yaratib, BMT organlaridan tashqarida parallel tizimlar barpo etsa, BMTning roliga cheklov bo‘lishi mumkin. Shuningdek, moliyaviy majburiyatlar, byudjet masalalari va BMT moliyaviy operatsiyalarining moliyalashtirilishi bo‘yicha masalalar Xitoy BMTga o‘z hissasini to‘liq va vaqtida qo‘shmasligi bilan tanqidga uchraydi, masalan, ma‘lumotlarga ko‘ra, Xitoy BMT byudjeti uchun badallari to‘lovini kechiktirish holatlari kuzatiladi[7].

Qisqacha xulosalar va mulohazalardan ko‘rinadiki uyg‘unlik mavjud. Agar Xitoy Tashabbusni shaffof, inklyuziv va muvozanatli tarzda amalga oshirsa, u BMT funksiyalarining xavfsizlik, rivojlanish, hamkorlik, huquqiy tizimlari bilan muvofiq

ishlashi mumkin. Ayniqsa, BMTga qo'shimcha takliflar va islohotlar BMT tizimini yaxshilashga xizmat qilsa, bu hamohang foyda olib keladi.

Lekin shu bilan birga turli muammo va havf-xatarlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Siyosiy mojarolar va manfaat to'qnashuvlari fonida davlatlarning suverenitet, milliy manfaat va strategik pozitsiyalari turlicha muvozanatda bo'lishi mumkin, bu obyektiv qoidalar tamoyili bilan tortishuvga olib kelishi mumkin. Aniq chora-tadbirlarga mos amaliy mexanizmlar yetishmasligi ham kuzatilib Tashabbus ham ko'p yo'nalishlarda umumiy prinsiplarni bildiradi, lekin ularni amalga oshirish, monitoring mexanizmlari va moliyalashtirishda javobgarlik mexanizmlari kamroq tilga olinadi.

Tashabbus orqali erkinlik va muvozanat chegaralarida hech qanday ikki taraflik bo'lmasligi degan mulohaza kuchli davlatlarga cheklov bo'lmasa ham, u kuchsiz davlatlarga nisbatan nazorat va bosim vositasi bo'lishi mumkin. BMT bilan parallel institutlarning xavfililik darajasi maqomida, agar Xitoy yoki boshqa davlatlar tashabbus doirasida BMTdan tashqarida ko'p institutlarni yaratib yuborilsa, BMTning bir markaziy rolini battar kamaytirishi ham mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Rossiya Tashqi ishlar vazirligi vakili M.V.Zaxarova brifingi, Vladivostok, 4 sentyabr 2025: https://mid.ru/ru/press_service/spokesman/briefings/2044875/
2. Prezident V.Putin jurnalistlar savollariga javobi: <http://kremlin.ru/events/president/news/77914>
3. Xitoy TIV rasmiy bayonoti (ruscha): https://www.fmprc.gov.cn/rus/zxxx/202509/t20250903_11701686.html
4. Tashabbusga oid konseptual hujjat (ruscha): https://www.fmprc.gov.cn/rus/zxxx/202509/t20250902_11699924.html
5. "Kommersant" gazetasi tahlili: <https://www.kommersant.ru/doc/8022662>
6. Global Governance Initiative demonstrates China's firm support for UN, highlighting responsible role in international affairs: FM https://www.globaltimes.cn/page/202509/1344833.shtml?utm_source=chatgpt.com
7. China's delayed payments fuel UN funding crisis https://www.ft.com/content/66a3c1e1-ddb5-473b-a3ef-8559b52d5a85?utm_source=chatgpt.com
8. Understanding the Global Governance Initiative. https://www.chinatoday.com.cn/Opinion/Governance/202509/t20250915_800414996.html?utm_source=chatgpt.com